

Pahlavon Mahmud (Puryoyvaliy)

I

O'zbek shoirlarning adabiy merosini izlab 1959 yil avgust oyida Xorazmga bordim. Men ko'pdan beri Xorazmni ko'rishga mushtaq va xorazmliklarning o'ynoqi kuylariga, nafis raqslariga maftun edim. Shu safarimdan foydalanib, bu ko'hna madaniyat markazi va san'at o'lkasini chuqurroq o'rganishga taraddud qildim.

Xiva - osori atiq shahri. Xivada ko'p tarixiy yodgorliklar bor. Yo'lovchi hali shaharga yetmasdan besh-olti kilometrlik masofadan osmonpayvand minoralar, lojuvard gumbazlar namoyon bo'ladi. Bular ichida eng muhtashami "Hazrat Pahlavon" maqbarasidir. Biz ana shu ko'rkam maqbaraga kirdik. Maqbara gumbazi atrofiga fors-tojik tilida badiiy barkamol falsafiy ruboiylar naqsh qilib, o'yib yozilgan.

Ayrim ruboiylarda Mahmud Puryoyvaliy nomi zikr etilgan. Demak, bu yerda dafn qilingan zot mutafakkir shoir.

Xorazm tarixi muzeyiga borib "Hazrat pahlavon" ruboiylarini surishtirdim. Muzey ilmiy xodimi naqqosh Abdulla Boltayev muzeyda Pahlavon Mahmud ruboiylaridan iborat bir kitob borligini aytdi. Men darhol bu kitobni olib ko'rdim. БУВ Ё” Muhammad Rahim II (shoir Firuz) ko'chirgan nusxa ekan.

Urganchga qaytib keldim. Bu yerda bir xonadonda ruboiylarning yana bir nusxasi borligini eshitdim. Do'stim Yunus Yusupov ikkovlashib shu xonadonga bordik. U yerda eski kitoblar orasidan Pahlavon Mahmud ruboiylarining yana bir nusxasini topdik. Bu nusxani 1946 yilda Hasan Murod qori ko'chirgan ekan. Darhaqiqat, ruboiylar juda yuksak saviyada. Toshkentga kelib, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalarini qidirdim. Bu fondada Pahlavonning bir emas, ikki qo'lyozmasini topdik. Xuddi shu kecha-kunduzda bir ayol institutga bir kitob olib keldi. Bu - qo'shib muqova qilingan uch mustaqil asar bo'lib, ikkitasi avliyolar haqidagi rivoyatlar, uchinchisi Pahlavon Mahmudning tarjimai holiga oid "Hazrat Pahlavon hikoyalari" nomli qo'lyozmadir.

Mening Pahlavon Mahmud adabiy merosini qidirib yurganimni eshitib, muhtaram olimlarimizdan professor Yahyo G'ulomov bir qo'lyozma taqdim etdi, bunda Pahlavon Mahmudga nisbat berilgan uch yuz o'ttiz to'rt ruboiy bor.

Mana shu hujjatlar bilan tanishgach, bu boradagi ma'lumotni cho'qurlashtirmoq niyatida tarix va tazkiralarni qidira boshladim. Chunki Pahlavon Mahmuddek zabardast shoir haqida tarix va tazkiralarda ma'lumot bo'lmasligiga aqlim bovar qilmasdi.

1299-hijriy (1881 yilda) Bombayda nashr etilgan "Otashkadai Ozariy" nomli mashhur Sharq tazkirasida Pahlavon Mahmud haqida quyidagilar yozilgan:

"Ismi Pahlavon Mahmud, Puryoyvaliy laqabi bilan shuhrat topgan, uning pahlavonlik ovozi olamni tutgan, o'z asrining yagonasi bo'lgan. She'riyatda qudratli, "Kanzul Haqoyiq" nomli masnaviysi bor. Keyingi vaqtlarda tasavvuf mavzuida yozgan ruboiylari ancha yaxshi chiqqan" .

Mashhur turk olimi Shamsiddin Somibek ham "Qomusul a'lom"ning V va VI jildlarida Pahlavon Mahmud xususida ba'zi ma'lumotlar keltirgan. "Qomusul a'lom"ning har ikki jildida bir xil ma'lumot berilgani uchun biz V jilddagi parchani ko'chirish bilan qanoatlanamiz.

"Pahlavon Mahmud Eronning mashhur shoirlaridan bo'lib, Xorazmning Urganch qishlog'idandir. Yoshligida o'z kuchi va pahlavonligi bilan faxrlanib yurdi. Keyingi paytlarda tasavvuf tariqatida ko'p riyozat chekib, jismoniy zaiflashgan edi. "Kanzul Haqoyiq" nomli masnaviysi bor" .

1327-hijriyda Istanbulda nashr etilgan "Turklar ulum va fununa xizmatlari" nomli kitobda ham (avtor Muhammad Tohir bin Rif'at) Pahlavon Mahmud haqida so'z boradi, lekin bu avtor biror yangi narsa qo'shmay, Somibekning "Qomusul a'lom"dagi fikrlarini takrorlaydi.

Sharq adabiyotini juda yaxshi bilgan Sadridin Ayniy "Namunai adabiyoti tojik" kitobida Pahlavon Mahmudning "Qomus" va "Otashkada" tazkiralarda keltirilgan ruboiylarini ko'chirib, "o'zi xorazmlik, lekin tarjimai holini bilmadik" debdi .

Professor Yahyo G'ulomovning "Pamyatniki goroda Xivi" asari, o'z nomidan ko'rinib turgandek, tarixiy yodgorliklarga bag'ishlangan esa-da, Pahlavon Mahmud maqbarasi haqida so'z borganda, unda dafn etilgan shaxsning iyurligi to'g'risida ham gapirib, misol tariqasida bir-ikki ruboiysini keltirgan.

1958 yilda O'zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti mashhur rus olimlari G. A. Pugachenkova va L.I.Rempelning "Vi'dayushiyesya pamyatniki arxitekturi Uzbekistana" nomli kitobini nashr etdi. Bu kitob ham o'z ismidan ko'rinib turibdiki O'zbekistonning me'morlik san'ati tarixiga bag'ishlangan. Shu kitobning "Gumbaz Paxlavana Maxmuda" sarlavhali bobida Pahlavon Mahmud haqida bahs etib, uning shoirliqi xususida quyidagilar aytilgan: "...On i poet izvestni'y pod imenem Piriyaari Vali, podrajavshiy v svoix stixax Omaru Xayyamu".

Tarix va tazkira kitoblarida o'tmish va hozirgi zamon olimlarining Pahlavon Mahmud haqida bergan ma'lumotlari mana shular, xolos.

Bundan tashqari, Xiva muzeyining ilmiy xodimi, respublika xalq rassomi, mashhur Xorazm naqqoshi Abdulla Boltayevning qo'lyozma daftarlarida Xorazmning tarixiy yodgorliklari, jumladan, Mahmud Puryoyvaliyning tarjimai holiga doir qimmatli materiallar bor. Shuningdek, Xorazmda yozilgan qo'lyozma bir manoqibda (avliyolar haqida kitob) Mahmud Puryoyvaliyning hayot yo'li haqida diniy rang berib yozilgan, lekin aslida shoir Mahmudning porloq obrazini ifodalaydigan ma'lumotlar keltirilgan. Ana shu manbalarga asoslanib, shoirning tarjimai holi haqida quyidagi muxtasar ma'lumotni o'quvchilarga arz etmoq mumkin:

II

Shoirning otasi ko'hna urganchlik bo'lib, xotini homilalik chog'da Xivaga ko'chib keladi. Biroq, ular hali shaharga yetmay, xotini to'lg'oq tutib, shahar chetidagi bir uyda ko'zi yoriydi. Bu hodisa 645-hijriy, milodiy hisobi bilan 1247 yilda edi . Bolaga Mahmud deb nom qo'yadilar. Mahmud jismoniy jihatdan juda baquvvat, pahlavon bo'lib yetishadi. U Xorazmning ko'p shaharlariga, hatto Hindistonga borib kurashadi, lekin hech yerda yengilmaydi, butun umri yelkasi yerga tegmay, mamlakatning birinchi pahlavoni bo'lib qoladi. Shunday qilib, xalq Mahmudga "Pahlavon" laqabi berib, uni "Pahlavon Mahmud", "Pahlavon ota" deb yuritadilar. Biroq, pahlavonlik Mahmudning asosiy kasbi emas, uning asli kasbi po'stindo'zlik, telpakdo'zlik bo'lgan. Mahmud bu hunarda ham zo'r mahorat kasb etgan, uning juda ko'p shogird va xalfalari bo'lgan. Pahlavon hijriy 726-yilda, milodiy hisobi bilan 1326 yilda vafot etganda, uning vasiyatiga amal qilib, shogirdlari Pahlavon Mahmudning jasadini o'zining po'stindo'zlik korxonasi doirasiga dafn etganlar, maqbara ham ana shu qabr ustida barpo etilgan.

Manoqibda hikoya qilinishicha, Pahlavon Mahmud Hindistonda ekan chog'ida hindlar tarafini olib urushga qatnashadi. Hindiston podshohi Ray Ropoy Cho'nani o'limdan qutqazadi. Mana shundan keyin Hindiston podshohi mamnun bo'lib. Pahlavonga qarab:

"Tila tilagingni" deydi. Pahlavon molu dunyo, oltin, kumush talab qilmay, bir vaqtlar Hindistonga asir tushgan xorazmliklarni ozod qilishni iltimos etadi. Hindiston podshohi Pahlavon Mahmudning iltimosini bajo keltirib, xorazmlik tutqunlarni ozod etadi, yo'l xarajatlarini berib, Xorazmga qaytaradi.

Manoqibda hikoya qilinishicha, Pahlavon Mahmud Xiva yaqinida Chingizxonga qarshi urushda halok bo'lgan pahlavonlar qabri ustida maqbara barpo etgan va bu maqbaraning vayronalari hanuzgacha saqlanadi.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar Pahlavon Mahmudning ijtimoiy qiyofasini ravshan ko'rsatib turadi. Xorazm asirlarini ozod qilmoq, vatan uchun kurashda jon fido qilganlar go'ri ustida maqbara barpo etmoq - bu ilg'or odam, vatanparvar siymosini ko'rsatadi.

Sog'lom tanda - sog'lom aql, degan gap Pahlavon Mahmud siymosida to'la ifodasini topgan. Pahlavon Mahmudning zako va iste'dodi, tafakkur kuchi uning jismoniy qudratidan kam emas. Haqiqiy shoir va mutafakkir uchun o'z mushohadalaridan xulosa chiqarmoq, uni biror shaklda bayon etmoq tabiiy zarurat bo'lib qoladi. Sharqda ko'p mutafakkirlar o'zlarining falsafiy fikrlarini bayon qilmoq uchun she'riyatdan foydalanganlar. Bu haqiqatni Xayyom, Navoiy, Bedil va bizning mavzu bahsimiz Pahlavon Mahmud ijodi misolida ko'rish mumkin.

Ma'lumki, Xayyom butun adabiy faoliyati davomida faqat ruboiy janrida asar yozdi va ruboiy janrining tematik doirasini belgilab berdi: hayot va koinotning mohiyati haqida fikr yuritish, xushchaqchaq hayotning simvoli tarzida may va mahjubani kuylash - ruboiy janrining asosiy xislati bo'lib qoldi.

Pahlavon Mahmud she'riyatda ham, falsafada ham Xayyomning zakovatli davomchisidir. Fors adabiyotida Xayyomdan so'ng faqat ruboiy yozgan boshqa bir shoir yo'q. Bu hol turkiy xalqlar adabiyotida ham ko'rinmaydi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur va boshqa ko'p shoirlar ruboiyda o'z kuchlarini sinab ko'rgan bo'lsalar-da, bu janr, ularning ijodida asosiy o'rin tutmagan. Pahlavon Mahmud esa, butun umri fors-tojik tilida ruboiy yozgan. Shunday qilib, Pahlavon Mahmud Xayyomning falsafiy va badiiy g'oyalarini rivojlantirgan, unga o'z asri ruhini bergan. Bu - xayyomshunoslikda ham, o'zbek va tojik adabiyoti tarixida ham muhim yangilikdir.

Shuni ham qayd qilish lozimki, Pahlavon Mahmud Xayyomning oddiy taqlidchisi emas, aksincha, u o'zining zakovat va iste'dodi, mushohada kuchi jihatidan Xorazm Xayyomidir. Sharq adabiyotida teran mazmunli, nafis va o'ynoqi ruboiylarni "xayyomona" deb atash odat bo'lib ketgan. Shu mantiqdan chiqib baho berganda, Pahlavon Mahmudning san'atkorona ruboiylari hammasi ham hayyomonadir. Bu ruboiylar yonma-yon turganda, qaysi biri Xayyomniki-yu, qaysi biri Pahlavon Mahmudniki ekanini farq qilish qiyin.

Pahlavon Mahmud o'z asrining donishmandi edi, u o'zining uzoq umri davomida hayotni mushohada etib, to'g'ri xulosalar chiqargan, bu hol uning ruboiylarida yorqin aks etib, ularni hikmatli so'zlar darajasiga ko'targan. Mana shulardan biri:

Qora tosh sira ham bo'lmas lojuvard,  
Toza qalbga yuqmas aslo changu gard,  
Quloq solgin Puryoyvaliy so'ziga,  
Qo'rloqlardan biron chiqqanmidi mard!

Rost aytadi bu ulug' donishmand, yomon odamdan faqat yomonlik, yovuzlik kutish mumkin, mardlikka, vullomatlikka, ezgulikka u qobil emas!

Pahlavon Mahmudning nodonlardan, johillardan nafrati shu qadar zo'rki, uni shoirning o'z tili bilan aytmasdan boshqacha ta'bir bilan tushuntirish imkondan xorijdir. Mana u nima deydi:

Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,  
Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq,  
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,  
Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

Pahlavon Mahmudning muhabbat mavzuidagi ruboiylarini olib ko'raylik. Pahlavonning ishq mavzuidagi ruboiylari fikrning ravshanligi, mazmunning teranligi, mahjubga munosabatning samimiyligi, lirik qahramonning ma'shuqa rizosi uchun har qanday fidokorlikka hozirligi, obrazlarning rang-barangligi, xulosalarning favqulodda va kutilmaganligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Chunonchi:

Na choraki malomatdur vatanim,  
Ishq o'ldirdi, sevgi mening kafanim.  
Jannat bog'larida sen o'tir, zohid,  
MenъЂ”mast bulbul, do'zax mening chamanim.  
So'ragin, go'zalim, kerak bo'lsa jon,  
Jon emas, so'ragin hattoki imon.  
Faqat yaqinroq kel, qilma intizor,  
Sen harna istasang bergum begumon.  
Dedi yorim: "Yana nima g'aming bor?  
Xayoling band etdi qaysi go'zal yor?"  
Qo'llariga berib oyna, dedimki:  
Kimning aksin ko'rsangъЂ”shu menga dildor.

Pahlavon Mahmudning nazar-e'tiboridan molparast, dunyoparast, boshqacha aytganda, oltin-kumush bandalari ham chetda qolmagan. Mol-dunyoga, oltin-kumushga sajda qiluvchi bu toifa: "ema, ichma, bo'l baxil, boy bo'lmasang men kafil", shiori ostida

ish ko'radilar. Bu toifa boy bo'ladi, lekin gadodan battar kun kechiradi. Ular boyligini bolasidan ayaydi. Mahmud Pahlavon ana shu toifa ustidan istehzo qilib bunday deydi:

Ey hoja, sen nechun buncha bexabar,  
Xayolingda kecha-kunduz kumush, zar,  
Dastmoyang-ku bu olamda bir kafan,  
Buyurganmi senga kafan, kim aytar?

Pahlavon Mahmud Chingizning qonli yurishlari natijasida mamlakatga yetkazilgan og'ir jarohatlar hali bitmagan bir davrda yashadi. Bu davr - O'rta Osiyo va ayniqsa, Xorazm tarixining eng og'ir davri edi. Pahlavon Mahmud vatan boshiga tushgan bu sonsiz-sanoqsiz balolar, to'fonlarning shohidi bo'ldi. Shoir mana shu tarixiy baxtsizliklarni bir ruboiyga sig'dirib, o'z asrining ajoyib realistik lavhasini chizib bergan:

Davronda ko'p ko'zni men giryon ko'rdim,  
Neki balo bo'lsa beomon ko'rdim,  
Nuh ming yil yashadi, ko'rdi bir to'fon,  
Men Nuh bo'lmasam ham ming to'fon ko'rdim.

Biz Pahlavon Mahmud ruboiylaridan bir necha misollar keltirdik, xolos. Lekin, ziyrak o'quvchilar bu qatrada dengiz aks etganini his etadilar, deb ishonamiz.

\* \* \*

Pahlavon Mahmudning nomiga hamisha bir-ikki laqab tirkab aytiladi. Uni Xorazmda: "Pahlavon Mahmud", "Polvonpir" desalar, tarix va tazkira kitoblarida "Hazrat Pahlavon", "Mahmud Piriyorvali", "Mahmud Puryoyvaliy" deb tilga olinadi. "Otashkada" va "Qomusul a'lom"da esa, Pahlavon Mahmudni jangovar, jangjo'y, harbiy, urushqoq ma'nosida "Qitoli" laqabi bilan tilga oladilar. "Majolisul-ushshoq" tazkirasida keltirilgan bir g'azalida Pahlavon Mahmud "Qitoli" laqabini ham taxallus o'rnida ishlatgan. Chunonchi:

Daste namerasad chu Qitoli ba zulfi yor  
Quvvat zi pov B'u zo'r bozu nihodayem .

Ba'zi tazkirachilar Piriyor Vali shoirning otasining nomi deb da'vo qilsa (masalan, Shamsiddin Somi), boshqalar Piriyor Vali shoirning taxallusi degan fikrni olg'a suradilar (masalan, Viktor Vitkovich).

Aslida bu da'volarning har ikkisi ham xato.

"Charog'i hidoyat" lug'atida: "Puryoyvaliy - pahlavonlar piriga beriladigan laqab" deyiladi .

Mahmud esa, O'rta Osiyo, Eron va Hindistonda yelkasi yerga tegmagan birinchi darajadagi pahlavon ekanini yuqorida qayd qilgan edik. Shuning uchun pahlavonlar pahlavoni, pahlavonlar piri ma'nosida Puryoyvaliy laqabi dastlab xorazmlik Pahlavon Mahmudga berilgan. "G'iyosul lug'at"ning quyidagi so'zlari ham bu fikrni to'la tasdiqlaydi:

"Puryoyvaliy Mahmud Xorazmiyning laqabi. Ba'zan bu so'z majoziy ma'noda zo'rxona (pahlavonxonona) boshlig'i bo'lgan keksa pahlavonlarga ham nisbat beriladi" .

Mana shu asoslarga binoan biz Mahmudning pahlavonlik laqabini bu kungacha yozib kelgandek Piriyor Vali shaklida emas, Puryoyvaliy shaklida yozishni ma'qul ko'rdik.

Kotiblar ruboiylarni ko'chirganda juda ko'p xatoga yo'l qo'yganlar. Natijada bir misrada vazn buzilgan bo'lsa, boshqasida ma'no tamomila o'zgarib ketgan. Fors adabiyoti mutaxassislaridan do'stim Munirxon Muinzoda bilan baqamti kotiblarning muqarrar xatolarini topib tuzatdik. Bizning bu xizmatimiz nimadan iborat ekanini quyidagi misollarda aniq ko'rishingiz mumkin:

Qo'lyozmada:

1. Bo xesh pisari ki dilbariro shoyad

Tuzatilgani:

Bo xush pisare ki dilbariro shoyad

Qo'lyozmada:

2. Gar tarki vido' kardayem ma'zuram

Tuzatilgani:

Gar tarki vido' kardaam ma'zuram

Qo'lyozmada:

3. May no'sh benishon base xohad murd

Tuzatilgani:

May no'shki benishon base xohad murd

Qo'lyozmada:

4. E dil to g'ami ishq tamanno kardi

Tuzatilgani:

E dil chu g'ami ishq tamanno kardi

Qo'lyozmada:

5. On zarraki hisob noyad noyem

Tuzatilgani:

On zarraki dar hisob noyad moyem.

Qo'lyozmada:

6. Bo bad binshin bosh begonai u

Tuzatilgani:

Bo bad manishinu bosh begonai u

Qo'lyozmada:

7. Daryoyi talab jumla baru basta buvad

Tuzatilgani:

Darhoyi talab jumla baro' basta buvad

Qo'lyozmada:

8. Dushanba burd bor dusham bud

Tuzatilgani:

Dushinaki bar dargahi tu dusham bud

Qo'lyozmada:

9. Dar roh nigarki roh chunan raftand

Tuzatilgani:

Dar roh nigarki roh binon raftand.

Qo'lyozmada:

10. Rasmestki dar vafo bani odam nest

Tuzatilgani:

Rasmest vafoki dar bani odam ayest.

Qo'lyozmada:

11. Man Nuhi nim hazor to'fon didam

Tuzatilgani:

Man Nuh nayam, hazor to'fon didam.

Boshqa tuzatishlar ham xuddi shu ruhda bo'lib, ruboiylarning kotiblar vayron etgan vaznini, mazmunini bir darajada tikladik, deb o'ylaymiz.

Biz "Ruboiyoti hazrati Pahlavon" nomi bilan yuritilgan besh qo'lyozma nusxani ko'zdan kechirib, shulardan ellik yetti ruboiyni tanlab, tarjima qildik. Ayrim nusxalarda uch yuzdan ortiq ruboiylar bor-ku, nega biz ko'proq olmadik? Buning sababi shuki, hamma nusxalarga boshqa shoirlarning ruboiylari kirib qolgan. Qandaydir mas'uliyatsiz kotib so'rab-surishtirmay, qo'lga tushgan yoki eshitgan har bir ruboiyni Pahlavon Mahmudga nisbat berib ko'chira bergan. Natijada, "Hazrati Pahlavon ruboiylari" nomli qo'lyozmalar turli maslak va har xil saviyadagi shoirlarning mushtarak ruboiy to'plami bo'lib qolgan.

Xorazmliklar asrlar davomida Pahlavon Mahmudni avliyo deb yurganlari uchun kotiblar

ham so'fiyona ruboiylarni unga nisbat berib to'plamga kirita berganlar. Buning ustiga biz ko'rib chiqqan qo'lyozmalar hammasi ham XIX b XX asrda ko'chirilgan. Agar bular orasida birorta eski-mo'tabar nusxa bo'lganda, Pahlavon Mahmud ruboiylarini ajratish yengilroq bo'lardi. Afsuski, hozircha eski nusxalar topilgani yo'q. Shuningdek, "Otashkada" va "Qomusul a'lom"da tilga olingan "Kanzul haqoyiq" nomli masnaviyini ham topish bizga nasib bo'lmadi.

Biz, Pahlavon Mahmudga nisbat berib, boshqa shoirlarning asarlarini nashr etib qo'ymaylik, degan andisha bilan ruboiylarni mumkin qadar sinchiklab tekshirdik, turli shoirlarning ruboiylari qorishib ketgan bu shubhali nusxalarni qayta-qayta o'qib, Pahlavon Mahmudning sog'lom, mag'rur ovozi farq etishga harakat qildik. Biz tanlagan ruboiylardagi ruhiy tetiklik, fikriy teranlik ularni boshqa ruboiylardan ajratib turadi. Ayrim ruboiylarga esa shoir: "Bishnav suxani Mahmud Puryoyvaliy" deb, o'z nomi bilan muhr bosib qo'lyagan.

Shoirning nomi zikr qilingan ruboiylarning ruhiga qarab, biz shu qalbning sadosini, shu ruhning tug'yonini o'quvchiga yetkazishga harakat qildik,

Xiva - Toshkent, 1960 yil

Mardlik Va Odamiylik Taronalari

Uchinchi Nashriga So'zboshi

I

Subhidam payti kimdir ko'cha eshigini qoqdi, bu dekabr' oyining ayoz tongi edi. "Hozir" dedim-da, naridan-beri kiyinib tashqariga chiqdim. Chiqdimu, hayron bo'lib qoldim. Eshigimiz oldida Xorazm oblast' prokurori Rustam Muhamedov turardi.

Men mehmonni darhol issiq uyga boshlab kirdim, pal'toni yechib, bemalol yozilib o'tirishni taklif qildim. Ammo, mehmon uzr aytdi:

- Domla, men sizga Xorazmdan sovg'a olib keldim. Shu narsani sizga topshirib, ikkinchi samolyotda qaytishim shart, chunki kechki payt obkomda majlis bo'ladi.

Demak hech qanday e'tirozga o'rin yo'q.

Biz oshig'ich ravishda sovg'ani ochib ko'rdik. Bu - biz zoriqib, istab yurgan Pahlavon Mahmudning ruboiylari majmuasi edi.

Men kamoli quvonganimdan mehmonni chochoqlab o'pdim, va'daga vafolari, olijanobliklari, madaniyatimiz tarixiga bo'lgan cheksiz ehtiromlari uchun Madrahim Rahmonov va Rustam Muhamedovlarga qayta-qayta tashakkur aytdim.

Mehmon xayr-xo'sh qilib ketgandan so'ng, men iftixor bilan o'ylardim: "Ajabo, partiya va davlat arboblari, hatto adliya xodimlari ham adabiyot, she'riyat xizmatida, bu qanday go'zal-a!"

Madrahim Rahmonov kim deysizmi? Voqea mana bunday:

Pahlavon Mahmud haqidagi asarimni kengaytirib, uni qayta nashr etish mening o'n yillik orzuim. Bu - yangi tadqiqotlar o'tkazish, shoirning boshqa asarlarini topish, ularni forschadan o'zbekchaga tarjima qilib, sharhu bayon etish demakdir.

Shu maqsadda 1974 yil 23 sentabrda Yozuvchilar Soyuzidan ijodiy komandirovka olib, Xivaga jo'nadim. Taassufki, Xiva ziyoratidan murod hosil bo'lmadi. Xivadan biror yangi narsa topmadimgina emas, borlari ham muzeydan yo'qolganini eshitib qattiq ranjidim. Xullas, Xivadan xunob bo'lib Urganchga qaytdim.

Urganchda eski qadrdomimiz, oblast' prokurori, huquqshunoslik fanlari kandidati muhtaram Rustam Muhamedov xonadonida mehmon bo'ldik. Kechqurun dasturxon atrofida uch kishi o'tirardik: men, mezbon va Xorazm oblastining mas'ul xodimlaridan Madrahim Rahmonov.

To'satdan kelgan mehmonga: "Qanday shamol uchirdi?" - kabi savol berish odati bor.

5 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Men safarim sababini aytib, Xiva muzeyidan Pahlavon Mahmud ruboiylarining shoir Firuz ko'chirgan eng nodir nusxasi yo'qolganini hasrat-nadomat bilan naql qildim

Eshitganlar juda xafa bo'lishdi, xafa bo'lishdi emas, bir oz xijolat chekishdi. Axir, otalarimiz olti yuz yil asragan durdonalarni bugun muzeydan g'oyib bo'lishi hazil jinoyat emas-da! Ajabo, qaysi murtad, qaysi mal'un bu qabih ishga qo'l urdi ekan?

Madrahim Rahmonov uzoq yillar obkomning birinchi sekretari, oblast' ijroiya komitetining raisi lavozimida ishlagan, ko'pni ko'rgan vazmin, kamtarin kishi ekanlar. Mana shu kishi menga tasalli berib bunday dedilar:

- Xafa bo'lmang, domla. Ezgu niyat bilan safarga chiqibsiz. Sizni noumid qilib qo'ymaymiz. Pahlavon ruboiylarining bir nusxasi menda ham bor. Ammo yaqinda uni bir qarindoshimiz Shovotga olib ketgan edi. Hozir paxta terim kampaniyasi, hammamiz shu ish bilan bandmiz. Sal qo'l bo'shasa, darhol uni olib kelamizu, biroq sizga qanday yetkazib berishni bilmay turibman.

Gap shu yerga kelganda mezbonimiz Rustam Muhamedov sergaklanib:

- Agar siz kitobni menga keltirib bersangiz, men darrov Toshkentga borib, uni domlaning o'z qo'llariga topshirib kelaman, - deb iltifot qildilar.

Bu fikr hammamizga maqbul tushdi, uchovlon shunga qaror qildik.

Rustam Muhamedovning Urganchdan kitob ko'tarib Toshkentga kelishdan maqsadi shu va'daga vafu qilish edi.

O'rtoq Rahmonov berib yuborgan nusxa oltmish uch sahifadan iborat bo'lib, uni 1944 yilda Hasanmurod Qori ko'chirgan, ammo qaysi manbadan olingani ko'rsatilmagan. Ushbu majmuada fors-tojik tilida yozilgan uch yuz o'n to'rt ruboiy bor.

Men bu to'plamni olib, Andijonga ravona bo'ldim. Murodim andijonlik do'stlarim Imoiddin Qosimov (Ulfat) va Omonullo Valixonov (Boqir) bilan baqamti Pahlavon Mahmud ruboiylarini sinchiklab o'rganish, ularning eng nafis va mumtozlarini tanlab olish edi. Gap shundaki, Boqir va Ulfat fors tilinigina emas, fors klassik adabiyotini ham juda yaxshi bilishadi. Nazarimda, biz uchovlon birga bo'lsak, har qanday nozik nuktani yechishimiz, har bir ma'no tovlanishini payqashimiz oson ko'rinadi.

Xuddi shunday bo'ldi. O'n kun davomida (har kun erta soat 8 dan soat 2 gacha) Hazrat Pahlavon ruboiylarini sinchiklab o'qib chiqdik. Shu jarayonda kotib yo'l qo'ygan muqarrar xatolarni topib tuzatdik. Badiiy barkamol ruboiylarni alohida daftarga ko'chirdik. Ana shunday tayyorgarlikdan so'ng tarjimaga kirishdik.

Mashhur rus shoiri Jukovskiyning tarjima san'ati haqida ajib fikri bor: "Prozada, b" deydi Jukovskiy, - tarjimon avtoring quli, poeziyada shoirning hamkoridir". Biz uchovlon Hazrat Pahlavonga munosib hamkorlar bo'ldikmi-yo'qmi, bu jihati bizdan ko'ra muhtaram o'quvchilarga ayondir.

## II

Pahlavon Mahmud ruboiylarini o'qigan kishi o'zini qandaydir ma'naviy pokiza, ruhiy tetik va ulug'vor his etadi, chunki bu ruboiylarda shu ruh singdirib yuborilgan.

Xo'sh, bu qudratli ruhning sarchashmasi qayerda? Bu Pahlavon Mahmudning shaxsiy e'tiqodlari ifodasimi yoxud biror tabaqa, guruhning g'oyaviy dasturimi?

Ko'hna manbalar, jumladan Farididdin Attorning "Tazkiratul avliyo" kitobida aytilishicha, bu pokiza ruh tarixda futuvsat yoki juvonmardlik nomi bilan mashhur bir oqimning, bir ijtimoiy tabaqaning dasturilamalidir.

Juvonmardlar xalqqa beminnat xizmat qilib, muzdini haqdan talab qilish shiori ostida ish tutganlar.

Eron olimlaridan Said Nafisiy "Sarchashmai tasavvuf dar Eron" nomli asarida: "Futuvsat - juvonmardlik guruhining ulug' peshvolaridan biri mashhur shoir Pahlavon Mahmud Xorazmiydir", - deb ta'kidlaydi. Shu olimning uqtirishicha, O'rta Osiyoning dovyurak isyonkorlari - sarbadorlar ham juvonmardlar guruhiga mansub bo'lganlar.

XII b" XIV asrlarning bir daraja uyushgan mehnatkash tabaqasi, shubhasiz, shahar hunarmand-kosiblari edi. Bular temirchilar, qurolsozlar, misgarlar, duradgorlar, ko'nchilar, mo'ynado'zlar, to'quvchilar, tikuvchilar va me'morlardan iborat katta kuch edilar. Juvonmardlar mana shu hunarmandlar guruhining jangovar namoyandalari sifatida maydonga chiqdilar.

Juvonmardlar guruhining hayot prinsiplari mardlik va uning bezagi: marhamat, shafqat, muruvvat, saxovat va olijanoblik asosiga qurilgan. Juvonmardlar elga xizmat qilishni, aftodalarga dastgir bo'lishni, muhtojlarga marhamatu zaiflarni himoya qilishni o'zlari uchun sharaf deb bilganlar.

Professor Ye. E. Bertel's "So'fizm va so'fiylik adabiyoti" nomli kitobida: "Futuvsat hunarmandlarning yashirin tashkiloti" - deb ataydi.

Yosh olimlarimizdan Yoqubjon Ishoqov futuvsat - juvonmardlik harakatidan bahs etib: "Hunarmandlar guruhining ilg'or qarashlari va intilishlarini ifodalagan bu yo'nalish o'sha davrdagi ilg'or kuchlarning ma'lum qismi uchun ma'naviy zamin bo'lgan" deydi.

Pahlavon Mahmud futuvsat - juvonmardlik harakatining tashkilotchisigina emas, uning ma'naviy rahnamosi edi. Shoirning mardlik va olijanoblik ruhidagi ruboiylari shundan dalolat berib turibdi:

Olam fili qaytarolmas jur'atimiz,  
Charxdan zo'rroq qudratimiz, shavkatimiz,  
Gar chumoli kirib qolsa safimizga b"  
Sher etajak uni darhol davlatimiz,  
O'z nafsingga bo'lg'in amir, shunda mardsan,  
O'zgalarga bo'lma haqir, shunda mardsan,-  
Yiqilganni tepib o'tish mardlik emas,  
Aftodaga bo'lsang dastgir, shunda mardsan.

Ustoz Navoiy ham bu borada g'oyat porloq bir fikr aytganlar, tabarruk uchun shu baytni keltiraman:.

Muruvvat barcha bermoqdur, yemoq yo'q,  
Futuvsat barcha qilmoqdur, demoq yo'q.

Pahlavon Mahmud 79 yil umr ko'rdi. (1247 b" 1326). O'zining barakali umri davomida shoir talay tarixiy voqealarning shohidi

6 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

bo'ldi, ko'p kuzatishlar, mushohadalar o'tkazdi.

T. Jalolov, 1975 yil

Ruboiylar

1

O'zgalarni menga takyagoh qilma,  
Muhtoji vaziru podshoh qilma.  
Karamingdan qora sochim oqardi,  
Oq sochim-la zoru ro'siyoh qilma.

2

Gul yuzida bulut niqobdur hanuz,  
Ko'ngillarda mayli sharobdur hanuz,  
Uxlamagin, g'aflat vaqtimi hozir?  
May ich jono, zero oftobdur hanuz.

3

Gul yog'adi yuzlaringdan subhvor,  
Gul yog'adi xulqingdan ham chun bahor,  
Lahza sari rangga to'lib bu olam b' b'  
Gul yog'adi chehra ochib bu ro'zgor .

4

Jahon chehra b' b' ranggu ro'yi o'zingsan,  
Aql daryo b' b' uning suvi o'zingsan,  
Gul bargida shabnamdayin o'tirma,  
Bu boqchaning ranggu bo'yi o'zngnsan.

5

Umrimiz daraxtin past qilma, rabbi,  
Borliq sharobidan mast qilma, rabbi,  
O'zing karam bir-la mard yigitlarni  
Nokaslarga zeridast qilma, rabbi.

6

Yiroqdan qarasam labing purxanda,  
Ozod edim, tag'in bo'libman banda.  
Ozodlikdan har bir banda erur shod  
Men shundan shod b' b' senga bo'libman banda.

7

Dilim yana dilbar domiga tushdi,  
Ne dilbar, sitamgar domiga tushdi,  
Birining bandidan qutulmay hanuz,  
Boshqa laripaykar domiga tushdi, |

8

Yoding bilan ko'nglim har zamon toza,  
Nasim essa bo'lg'ay guliston toza,  
Diydoring farahbaxsh, uni ko'rganda b' b'  
Xotir jam, dil xurram, tanda jon toza.

9

Ul qodirki arzu aflok yaratdi,  
Ko'ngilda dog', dilni g'amnok yaratdi,  
Mushkin zulflarni-yu, yoqut lablarni  
Yerga qorib, oxirda xok yaratdi.

10

Qo'lda gul, quloqda shishadan ovoz,  
Jahon g'amlarini daf etar bu soz.  
Suv nag'masi-yu, bulut soyasida  
Qadah tutsalar ich, qilmayin hech noz.

11

Alamlar qaydidan ozodlar b'bizlar,  
G'am rizqimiz doim shodlar b'bizlar.  
Hushyorlik ne, rangi ro'yin bilmaymiz  
Yor ko'zidek mastona zodlar b'bizlar.

12

Yig'ilardan bo'ldi beg'ubor siyna,  
Dilim ham ko'zgudek bo'lib bekina,  
Ko'z yoshim-kudurat g'uborin yuvib,  
Sof bo'ldi qalbim ham misli oyina

13

Mahbubimning shirin maqoli yaxshi,  
Ham serishva qoshi b'hiloli yaxshi.  
Og'iz ganjin kulgidan hech tiyolmas,  
Bo'sa uchun bo'sh joyi b'xoli yaxshi.

14

Zulfing mudom ta'nai sanami Chin,  
Ko'zing karashmasi bir g'orati din,  
Arosatda xudo ko'rsa ruxsoring  
Quadratiga o'zi o'qir ming tahsin.

15

Kelishingdan voqif bo'lsam banogoh,  
Gul ekardim yo'llaringga subhigoh,  
Shu gullardan guldastalar tutardim  
Bu sharafdan mahrum bo'libmen, ey voh.

16

Hayfoki bahoda o'tinu ud bir  
Ham martabada Xalilu Namrud bir,  
Davlatdan mast bo'lgan anqov nazdida  
Eshak ovozi-yu kuyi Dovud bir.

17

Dastingdan dilimda yuz xil malomat,  
Bu zaxm bitmagay toqi qiyomat,  
Kim ham seidan umid qilar salomat?  
Sen tug'ilgan kuni o'lgan salomat.

18

Ey sarvqadu kumush tanu gulruxsor,  
Nokasga hamnishin bo'lmasin zinhor.  
Gar chinor chamanda savlat to'ksa ham,  
Gul ila chinorning ne nisbati bor?

19

Shirakayfga bu bodai nob avlo,  
Mastlikda-chi, diydai purob avlo,



Bu pastkash olamda vafo bo'lmagach,  
Dard bodasidan mastu xarob avlo,

20

Toza la'ldir bodadan gavharimiz,  
Dastimizdan fig'onda sog'arimiz,  
Biz may boshida-yu, may bizning boshda,  
Ya'ni mayi nobdir toji sarimiz.

21

Hayit kelsa savob ish bitgusidir,  
Sahar soqiy mayi nob tutgusidir,  
Namozingni qo'yib, ro'zangni tark et,  
Bugun gunohni savob bitgusidir.

22

Olam fili qaytarolmas jur'atimiz,  
Charxdan zo'rroq qudratimiz-shavkatimiz,  
Gar chumoli kirib qolsa safimizga,  
Sher etajak uni darhol davlatimiz.

23

O'z nafsingga bo'lgin amir, shunda mardsan,  
O'zgalarga bo'lma haqir, shunda mardsan,  
Yiqilganni tepib o'tish mardlik emas,  
Aftodaga bo'lsang dastgir, shunda mardsan.

24

Filday kuching bo'lsa ham mo'r bo'lib ko'rin,  
Moling oshib-toshsa ham ur bo'lib ko'rin,  
Hammaning aybini bilganing holda,  
Hech narsa bilmaganday, ko'r bo'lib ko'rin.

25

Olam ishi boshida bo'lsaydi bir mard,  
Nomardning boshidan chiqarardi gard,  
Olam ishi doimo misli nard o'yin  
Nayrang bilan yutadi mardlarni nomard.

26

Bir oqil deydiki bo'lg'il vallomat,  
Yoki vallomatga qila ko'r xizmat.  
Nomard xizmatiga yondoshma zinhor,  
O'ylagin, bu o'git qandoq pur hikmat.

27

Ko'nglim oppoq, na kek va na kinam bor,  
Dushmanim ko'p va lekin men hammaga yor,  
Mevali daraxtman, har bir o'tkinchib"b"  
Tosh otib o'tsa ham menga bo'lmas or.

28

Kel ko'ngil, men axtaray jononani,  
Ko'cha-ko'yu har eshik, har xonani  
Mastu mayxo'rmiz mudom Xayyomsifat  
Do'zax etgaymish qabul mastonani.

29

Bu hojiki avval edi bir ilon,  
Hajdan kelib ajdar bo'ldi beomon.  
Haram-param desa aslo aldanmang,  
Uying kuygur, o'zi asli beimon.

30

Qora tosh sira ham bo'lmas lojuvard,  
Toza qalbga yuqmas aslo changu gard.  
Quloq solgin Puryoyvaliy so'ziga,  
Qo'rqoqlardan biron chiqqanmidi mard!

31

Uch yuz Qo'hi Qofni kelida tuymoq,  
Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq  
Yoinki bir asr zindonda yotmoq  
Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

32

Gurkiragan olov - dilim yo'ldoshi,  
To'lqin urgan daryo - ko'zlarim yoshi  
Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za -  
Ko'hna do'stlar xoki - qo'li yo boshi.

33

Ne choraki malomatdur vatanim,  
Ishq o'ldirdi, sevgi mening kafanim,  
Jannat bog'larida sen o'tir, zohid,  
Men - mast bulbul, do'zax mening chamanim.

34

So'ragin, go'zalim, kerak bo'lsa jon,  
Jon emas, so'ragin hattoki imon.  
Faqat yaqinroq kel, qilma intizor,  
Sen harna istasang bergum begumon.

35

Dedi yorim: "Yana nima g'aming bor?  
Xayoling band etdi qaysi go'zal yor?"  
Qo'llariga berib oyna, dedimki:  
Kimning aksin ko'rsang - shu menga dildor.

36

Ey xoja, sen nechun buncha bexabar,  
Xayolingda kecha-kunduz kumush. zar,  
Dastmoyang-ku bu olamda bir kafan,  
Buyurganmi senga kafan, kim aytar?

37

Davronda ko'p ko'zni men giryon ko'rdim,  
Neki balo bo'lsa, beomon ko'rdim.  
Nuh-ku ming yil yashab ko'rди bir to'fon,  
Men Nuh bo'lmasam ham ming to'fon ko'rdim.

38

Dedim: ayt, umrning ma'nosi nima?  
Dedi: chaqmoq, yo sham', yoki parvona.  
Dedim: bu dunyoga bino qo'ygan kim?  
Dedi: yo go'l, yo mast, yoki devona.

39

Ufqni qizartdi qon yig'lab quyosh,  
Oy tirmadi yuzin, Zuhra yuldi bosh,  
Tong motamida tun qaro kiyinib,  
Yoqasin chok etdi qilolmay bardosh.

40

Joningga qasd etgach omonsiz ajal,  
Bulutdek yosh to'kdi ko'zim shu mahal,  
Tuproq'ing ustiga kelganlar dedi:  
Attang, yer ostida qoldi bir go'zal.

41

Tong chog'i yozganda lolalar yaproq,  
Sahar qushi dodlab derdi, ey o'rtoq,  
May ichkim, daraksiz ketar hamma ham,  
Qo'zg'al, yer ostida yotgungdir uzoq.

42

G'amingdan o'ldimu dil bo'lmadi shod,  
Hech kishi etmagay endi meni yod.  
Ayriliq keltirdi afsus-nadomat,  
Diydor ko'rmoq endi yo'qdir, yuz faryod!

43

Ey dil, ishq g'amini tamanno qilding,  
O'zingni xalq ichra sen rasvo qilding.  
Har kuni o'zingcha bir gulni tanlabb”  
Go'zallar yuzini tamosho qilding.

44

Borma aytmaganning dasturxoniga,  
Qo'l uzatsang, qadring tushar, noniga,  
Qo'shma o'zgalarning barra kabobin  
Qotgan non-u sovuq suving soniga.

45

Kim qilur bu vayron dilim imorat?  
Kim gunohim uchun berur kaforat?  
Men ziyorat qildim ko'p qabristonni,  
Bilmadim kim qilur qabrim ziyorat?!

46

Dilbarimga dedim: ey go'zal, tannoz,  
Nechun siniq chiqar og'zingdan ovoq?  
Dediki: tor og'zim so'zni sig'dirmay,  
Ushatib-ushatib chiqarar oz-oz.

47

Ohkim xasta ko'nglim hech bo'lmadi shod,  
G'amdan xotirim ham bo'lmadi ozod.  
Tiriklik niholi bermayin hosil,  
Bo'ldi aziz umrim, darig'o, barbod.

48

Dunyo do'stligiga berma xotir hech,  
Kekdan o'zga undan bo'lmas zohir hech,  
Yuz yil yashasang ham o'lim keladi,

Yuz mulkni olsang ham bo'lur oxir hech.

49

O'limingdan falak tutmadi motam,  
Jamolingni ko'rib bo'lmadi mulzam,  
Azroil ishidan ajablanaman:  
Joning ola turib uyalmadi ham.

50

Hamma darddan ko'ra ayriliq yomon,  
Hamma qayg'udan ham yomondir hijron,  
Qo'limdan kelmaydi sendan ayrilmoq,  
Jonsan, jondan kechish emas-ku oson.

51

Ko'nglimizga qo'nmas birovdan g'ubor,  
Bizdan ham birovga yetmagay ozor,  
Or va iftixordan uzoqlashganmiz,  
Na birovga faxru, na birovdan or.

52

Butkul falak ishi - javr ila jafo,  
Vafo ahli bo'lmas u bilan oshno. .  
Vafoli kishining iti bo'laman,  
Kishidan it yaxshi, bo'lmasa vafo.

53

Dunyo binokorn tuzar qasr-ayvon,  
Tuzib bo'ladi-yu qiladi vayron,  
Falakka yetkazib bugun toqini,  
Erta etadi yer bilan yakson.

54

Goho go'zallarning yuzin o'ylayman,  
Goho zulfin, goho ko'zin o'ylayman.  
Alqissa, husningdan qaysi zavq bersa,  
O'sha zamon shuning o'zin o'ylayman.

55

Ishq biyobonida yurmoq ham mushkul,  
Undan oyoq yig'ib turmoq ham mushkul,  
Hammadan mushkulroq shuki, har joyda  
Yoring ma'lum, lekin ko'rmoq ham mushkul

56

Ba'zi vaqt bo'laman ishqdan begona,  
Qang'usiz rohatga yaqin hamhona,  
To'satdan bir go'zal uchrab qolgandab"b"  
Yana yo'ldan urib qilur devona.

57

Ko'zgumga berardim kechqurun sayqal,  
Boqdim unga tiniq bo'lgan bir mahal,  
Shuncha ko'p ko'rindi o'z aybimki, men  
O'zgalar aybini unutdim tugal.

58

Dag'al dili doim ezilgan bo'lur,

Talab yo'li unga to'silgan bo'lur,  
Yomon-yaxshi bilan kim kelisholsa,  
Dili shodu g'amdan qutulgan bo'lur.

59

Mahmud, noshukurlik har kimda yomon,  
Ayb-aybu, lek yetuk haqimda yomon,  
Kiyim eskirgani aybga qo'shilmas,  
Ayb shunda - gar bo'lsa kiyimda yomon.

60

Shodmiz, qayg'umiz yo'q aslo ayyomdan,  
Saharlik bo'lganu qayg'u yo'q shomdan,  
G'oyibdan pishgan non kelib turganda,  
Xomtama emasmiz, tama yo'q xomdan.

61

Yerga aralashib yotar necha dil,  
Jahon zarralari - lab, tish yoki til,  
Yerdan unib chiqqan sunbul, yo gulni  
Go'zallarning sochi, yo yuzi degil.

62

Afsuski, topilmas hamdam bu damda,  
Bir vafoli yor yo'q aslo olamda,  
Odamlardan vafo istama zinhor,  
Vafo odati yo'q bani odamda.

63

Podsholik istasang, bo'l el gadosi;  
O'zingni unutu, bo'l el oshnosi.  
El toj kabi boshga ko'tarsin desang,  
El qo'lin tutginu bo'l xokiposi.

64

Tuproq to'shagida yotgan ko'p ko'rdim,  
Yer qora bag'riga botgan ko'p ko'rdim,  
Yo'qlik olamiga ko'z tashlaganda,  
Kelmagan ko'p ko'rdim, ketgan ko'p ko'rdim.

65

Hayot mayi bo'lur tiniq, quyqa ham,  
Kiyim ham gohi bo'z, gohi beqasam.  
Bular og'ir emas oqil oldida,  
Zor o'lmoqliq bo'lur juda og'ir dam.

66

Ey dil, shohi to'nni qilmagil havas,  
Eski kiymoqlikni ham etmagil bas,  
Yengil o'tsin desang o'z kuningni sen,  
Qaram qilma o'zni birovga abas.

67

Yo'lga boqki, yo'lchi odamlar ketdi,  
G'ofil o'tirmaki, hamdamlar ketdi,  
Bir qavm senga yaqin va uyg'un edi,  
U qavm o'tib, yaqin odamlar ketdi.

68

Ajal shunday dardki, yo'q unga darmon,  
Shohu gadolarga beradi farmon.  
Kirmon podshohikim yerdi Kirmonni,  
Endi yegay uning o'zini Kirmon .

69

Bechora dilim-ku hayotdan bezor,  
Bu aziz umrim ham ko'z oldimda xor.  
Boshimdagi tojnim - yengiltak boshbog',  
Tanamdagi boshim - og'ir, zil dastor.

70

Men kimmanki, mendan savob kutarlar,  
Yeb yotganim uchun javob kutarlar.  
Malak ham hisobda bo'lmagan joyda  
Nima uchun mendan hisob kutarlar.

71

Dardu alam bilan umrin sarflash hayf,  
Qayg'u tikanidan jonni asrash hayf,  
Jahon bog'i ichra quyosh gulidek  
G'unchalik lazzatin totmay gullash hayf!

72

Donish erur otgan o'qim nishoni,  
Dadillik manbai - bilimim koni.  
Ezgulik osmonin mahbusiman men,  
Zanjirim - fazo-yu samo ummoni.

73

Dimog'imdan oxir savdo gul ochdi,  
Rasvolik pardasin tori til ochdi.  
Devonaligimdan boshimdagi dog'  
Butun vujudimdan gul-yuz xil ochdi.

74

Har nuqta xatimda yongan yurakdir,  
Har harfi qorong'u zulmat demakdir.  
Chekmasman oqshomlar shamning minnatin,  
Chunki, fikrim shamdan shu'laliroqdir.

75

Diltanglikdan chaman ko'zimga go'rdir,  
Nazdimda gul jarohati nosurdir  
Tuzsizlik - sho'rlikning aksi-ku, axir,  
Nega baxtim ham tuzsiz, ham sho'rdir?

76

Ulusga qayg'urur shoh emas, darvesh,  
Zero u darveshdir, darveshdir, darvesh.  
Buzuq devorlardan tashvish bor, lekin,  
Siniq ko'ngullardan ko'proqdir tashvish.

77

Roziliging, zohid, raddan battaroq,  
Hamma ishing baddir, baddan battarroq.  
Kofirsan-ku! Nega: "Mo"minman!" - deysan?  
Sendek mo'min, bil, murtaddan battarroq!

78

Ma'rifatning tili - cholg'u - noyimdir,  
Aqlim - qilich, so'zim o'qu yoyimdir.  
Imtiyozlar mulkin shohi bilurkim,  
So'z maydoni - ishg'ol qilgan joyimdir.

79

Rashkingdan bog'da gul o'zni so'ldirur,  
Loladek ko'ksin dog' bir-la to'ldirur,  
Jamoling shu'lasi yoritgan joyda  
Chiroq o'z nurini o'zi so'ndirur.

80

Ey ishq, nechuk o'tsan, axir, duding yo'q?  
Ey g'am, nechuk kuysankim, suruding yo'q?  
Ey istak, nechuksan, tutqich bermaysan,  
Ey shodlik, nechuksankim, vujuding yo'q?!

81

Bu charx fitna o'qin qon to'kar etmish,  
Tinchlik davrin balo qo'zg'atar etmish.  
Yigirmas mehr ipin vafoga bu charx,  
Bu charx kina tig'in tez kesar etmish.

82

Nomingdanki, topar har ayyom sharaf,  
Shunday nomki, keltirar bu nom sharaf.  
May ichmay netarsen sharaflı kunda?  
Baxsh etur fayzu keltirur jom sharaf!

83

Yo'q osmonda, yerning yuzida ham tuz,  
Dengizning suvida, muzida ham tuz.  
Tuz ko'zdan oqqan qon tufayli tuzsiz,  
Ajab zamonki, yo'q tuzida ham tuz!

84

Har zamon ko'nglimni qilib parishon,  
Loladek dil kulin sochaman har yon.  
Har tun qum soatdek firoq g'uborin  
Boshimga sochaman har soat, har on.

85

Qilmishingdan, zohid, uyatgil, uyat!  
Chunki tiling boshqa, boshqadir niyat!  
Nim tovus, nim kaklik vujuding, zohid,  
Oyog'ing goh chipor, goh qirmiz, illat!

86

Nodon g'iybatiga bo'libman nishon,  
Qaytarg'um hujumni, menman pahlavon!  
Malomat qilurlar johillar, chunki,  
Bilimda erurman nodiri zamon.

87

Har yoqdan g'am otgan toshni ko'raman,  
Ko'z ochsam - chimirilgan qoshni ko'raman.

Qachongacha poymol etib fikrimni,  
Tizza ko'zglasida boshni ko'raman?!

88

O'tda ayniguchi serg'ash emasman,  
Sof oltinman, misi barkash emasman,  
Qaynoqman va sofman quyosh nuridek,  
Oydek sovuq, dog'lik barkash emasman!

89

So'zparastman, fayzli nafas istayman,  
Bir lutfda yuzlab havas istayman.  
Bu nokaslar loyiq emas tinglashga,  
Nozik so'zga bir serhavas istayman-

90

Mazmunin peshanam xatidan so'ray,  
Taqdirim qay yo'sin va qachon so'ray,  
Yaxshisi ko'ksimni yorib bu holning  
Aslini qon to'lgan ko'nolimdan so'ray!

91

Orzuning ilgida ko'rganim har gul,  
Bilgumki, bog'ida ekkan u sofdil.  
Hajrining jamida ichganim qar qon,  
Lablarin rangidan, rang olgan deb bil.

92

Ey dil, tildek dushmani jon emasmiz.  
Urma tig'ing, bilgil, zabon emasmiz-  
Qachongacha sen g'aflatda, biz - uyg'oq,  
Mudragan baxt, senga posbon emasmiz!

93

Ey charxi falak, zamonayi dunparvar,  
Teskari yurishing to'g'riga xatar:  
Nodon bosh ustida-yu dono poymol,  
Yo rab, bu falakni et zeru zabar.

94

Dardmandam, dardmandam, butkul dardmandam,  
Orazing sham'idan o'rgulay har dam,  
Gar vasling davlati muyassar bo'lsa,  
Surayin poyingga bu ro'yi zardam!

95

Qanday yaxshi bir ra'noga bo'lsang yor!  
Sahrodagi shabbodadek xushraftor,  
Bahor keldi, do'stlar, gashtin suraylik,  
To kelguncha bizsiz o'tguvchi bahor.

96

Necha yil ilm-hunar payida bo'ldik  
Necha yil zar-zavar payida bo'ldik,  
Olam sirlaridan bo'lganda o'gohib B"  
Bori ishni tashlab Qalandar bo'ldik.

97



Sen, albatta, topib bir dono, o'ltir,  
Yoinki, topib sen bir ra'no, o'ltir,  
Topilmasa senga gar ikkisi ham,  
Behuda kechirma vaqt, tanho, o'ltir.

98

Yomon ko'z ko'rmasin ul ko'zlari mast,  
Ko'rmasin ofat ul labi mayparast,  
Murodim shudir kim, xudodan doim,  
Muborak qaddiga yetmasin shikast!

99

Do'stim, ertalikning g'amin yemagil,  
Bu bir naqd nafasni g'animat bilgil,  
Bu eski eshikdan o'tarmiz bir-bir,  
Yotgaymiz o'shanda bizlar ko'p ming yil.

100

Falak charxi ichra bizlar hayronmiz,  
Fonus misol xayol qilib sarsonmiz,  
Quyosh charog' bo'lsa, jahon bir fonus,  
Qo'g'irchoqdek tunda biz sargardonmiz.

101

Boshu ko'ngul qora, go'yoki lola,  
Ko'z g'uncha og'zidek limmo-lim jola.  
Ko'nglimning yonidan o'tkuchi dedi:  
Qulog'imda qolmish hazin bir nola.

102

Zamonning zarbidan bosh beidrokdur,  
Na dilning ko'zgusi qayg'udan pokdir,  
Sa'y etma to'kib ter tarbiyatimga,  
Tuproqni yuvsang ham u xokdir, xokdir!

103

Nazar topgan kimsa - qiymatli gavhar,  
Kam o'ylagan kimsa bo'lur benazar,  
Ishqsiz kamol bo'lmas ushbu olamda,  
Kosadan muroddir, asli, kosagar!

104

Qo'zingdir noz bilan jono go'zalroq,  
G'amzangdan karashma sozidir quvnoq,  
Ovlagay dil qushin xuddi baliqdek,  
Muattar sochingdir ham ip, ham qarmoq.

105

Tavbanga tayandim, sharobim keltir,  
Iztirobim ortdi gulobim keltir,  
So'ndirar tutsang jom xumorim o'tin,  
O't tushdi ko'nglimga kel, obim keltir.

106

Hidoyat izlayman, sen yo'ldan urma,  
Nasimdek yuguray, yo'limni burma,  
Yo'lingga gullardan solma poyonoz,  
Serob qil, xokbo'yman, ko'zlarga surma.

107

Hamdamlar kibr ila so'zlarlar so'zin,  
Chamanda gul deya bilurlar yuzin,  
Tunu kun soyam-la so'zlashurman men,  
Yosh bola ko'rgandek ko'zguda o'zin.

108

Shikoyat qilma, ey ta'magir nopok,  
Tuproqdan or etmam, chunki o'zim xok  
Cho'pni ham eltolmas bu suvdan hech kim,  
Gavhar senga bo'lsin, menga bas xoshok!

109

Har kimsa ham senga oshino bo'lmas,  
Seni kimki, bilmas u shaydo bo'lmas.  
Dardingda bo'laman rasvo va lekin,  
Dardingni asrayman, u rasvo bo'lmas.

110

Parhez bemaza-yu tuzsizdir taqvo!  
Gunohda ham afsus, maza yo'h aslo!  
Yuvdi suv tuzini hamma narsaning,  
Oldi yel mazani, bu qanday savdo?!

111

Xudoni yod etib, biyobon ketdik,  
Biz tan olamidani jon tomon ketdik.  
Tunu kun fikr etdim yetmish ikki yil,  
Sarson bo'lib yurdik, ham hayron ketdik,

112

Oqil aqli hisga giriftor bo'lmas,  
Hasad qilgan bilan tillo xor bo'lmas,  
Nomard - it kabi, mard buyuk daryo,  
Daryo it damidan hech murdor bo'lmas.

113

Tun - ikkiqat xotin, ne tug'ar ekan?  
Zamona hukmidan ne yog'ar ekan?  
Umr avvalida ne keldi, ko'rdik,  
Ko'rarmiz - oxiri ne bo'lar ekan?

114

Yomon bilan ulfat bo'lma, yur yiroq,  
Yo'linga don sochib, qo'yadi tuzoq.  
Yoyni egri ko'rib, to'g'riligidan b"b"  
O'q undan qanchalik qochganiga boq!

115

Oh tortgan chog'ingda yo'lga ko'e tutgil,  
Yo'lda quduq bordir, ehtiyoting qil,  
Do'st uyida mahram bo'lgan vaqtingda  
Qo'lingni, ko'zingni, dilni tiya bil.

116

Dil ko'yini kezdin, bu menga odat,  
Pokki ham yuviqsiz etdim ziyorat.  
Ramazon ro'zasin tutmaganimga -

Yuviqsiz namozim bo'ldi kaforat.

117

Toki bor g'ayratu mardlikdan asar,  
Ahlu ayolingni etma darbadar,  
Meva shoxi agar devordan oshsa,  
Yo'lovchilar unga beshak qo'l cho'zar.

Sayyor Ruboiylar Xususida

Ruboiy janri ulug' Xayyom sharofatidan, uning mo'jizakor qalami qudratidan shuhrat topgani hammaga ayon, ammo bu shoirning o'z umrida qancha ruboiy yozgani hech kimga ma'lum emas. Hanuzgacha bu muammoni Eron olimlari ham, Yevropa sharkshunoslari ham hal etolmay garang. Bu olimlarning bir qismi, Xayyom ruboiylari 100 bilan 125 atrofida, deb taxmin qilishsa, boshqalari Xayyom ruboiylari 1000dan ziyod deb, da'vo qilishadi. Biroq har ikki tomonning da'vosida ham hech qanday asos yo'q. 100 bilan 1000 raqami orasida yer bilan osmonday katta tafovut bor, bu ulkan tafovut rost bilan yolg'on orasidagi jarlikdir. Ruboiyotda shoirning nomi - taxallusi kamdan-kam zikr qilinadi. Bu hol tazkirachilarni mushkul ahvolga solib, ayrim ruboiylarni, ularning biri, bir shoirga nisbat bersa, boshqasi ikkinchi shoirga nisbat beradi: bu xil taxminlar natijasida bir qancha sayyor ruboiylar vujudga kelib, ular kitobdan-kitobga ko'chib yuradi.

Shunday sayyor ruboiylarning ba'zilari Pahlavon Mahmud ruboiylari majmuasiga ham kirib qolgan. Chunonchi, Pahlavonning 1962 yilda nashr etilgan "Ruboiylar" kitobiga 56 ruboiysini o'zbekcha tarjimai bilan kiritgan edik. Yosh olimlarimizdan Yoqubjon Ishaqov bir yillik umrini sarf qilib, shu ruboiylarni forsiy ruboiynavislarining asarlariga chog'ishtirib qarasa, Pahlavon Mahmudga nisbat berilgan 56 ruboiyning beshtasi boshqa shoirlarning sayyor ruboiylari bo'lib chiqibdi. Garchi bu ish o'ta sermehnatu kamhosil bo'lsa ham shoyoni tahsindir. Men yosh olimning bunday sinchkovligini yuksak baholab, o'sha sayyor ruboiylarni Pahlavon Mahmud asarlari tarkibidan ajratib, tabarruk uchun maxsus bobga ko'chirdim. Tazkiralarda ular quyidagi shoirlarga nisbat berilgan ekan:

Mahsatiyga nisbat berilgani:

Dunyo bamisoli bir zarrin ko'za,  
Suvi goh shirinu, goh achchiq bo'za,  
Ey g'ofil, umringga bino qo'yma ko'p,  
Qazoyi muallaq turar bosh uza.

T. Jalolov tarjimai

Sulton Ya'qubga nisbat berilgani:

Dunyoda shodlikni juda kam ko'rdim,  
Har bir xursandlikda ming-ming g'am ko'rdim.  
Bu eski saroyning har tarafida -  
Yo'qlik dashti sari eshik ham ko'rdim.

Shu ruboiyning ikkinchi varianti:

Dunyoda qaroru sabot g'oyat kam,  
Har bir shodligida ming qayg'u alam,  
Bu eski saroyning har tomonida  
Rahnalar ochilib - ko'rinur adam.

Hiloliyga nisbat berilgani:

Dunyoda hech kishi emasdir xurram,  
Bani odam bo'lmas shodlik-la hamdam,  
Kimdaki bo'lmasa zamona g'ami,  
Yo olamdan emas, yo zmas odam.

Urfiy Sheroziyga nisbat berilgani:

Tizzam kelin kabi to'ldirib quchoq,  
Ko'yingda yotardim kecha-tungi choq  
Yo'q edi ko'zimdan o'zga yopiqlik,  
Bosh osti yostig'im edi shu quloq.

Muinzoda tarjimai

Kitobning birinchi nashriga kirib qolgan munozarali, sayyor ruboiylar mana shular xolos.

19 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

This is not registered version of TotalDocConverter

Biz bu kitobning interaktiv versiyasini shu sahifada olingingizga 65 ruboiysini tanlab tarjima qildik. Ammo qo'lyozmani nashriyotga topshirishdan avval, Xayyom ruboiylari bilan solishtirib qaragam, bir falsafiy ruboiy (bir oz tafovut bilan) har ikki shoirning ruboiylar majmuasiga kiritilgan ekan. Bu ruboiyni Shoislom Shomuhamedov Xayyomga nisbat berib, kamina esa, Pahlavon Mahmudga nisbat berib tarjima qilibmiz. Mana shu ruboiylar:

Ul qodirki arzu aflok yaratdi,  
Ko'ngilda dog', dilni g'amnok yaratdi,  
Mushkin zulflarni-yu, yoqut lablarni  
Yerga qorib, oxirda xok yaratdn.

T. Jalolov tarjimasi

Ulki jahon tuzdi, charx, aflok tuzdi,  
Ko'ngilga dog' soldi, ham chok-chok tuzdi,  
Juda ko'p yoqutlab, oyyuzlilarni  
Yer ichra jo qildi, bir kaft xok tuzdi.

Sh. Shomuhamedov tarjimasi

Sayyor ruboiylar haqida gap ketgach, o'zim bevosita aralashgan bir voqeani arz etmoqchiman. Gap shundaki Ibn Sino va Umar Xayyom muxlislari ko'pdan beri bir ruboiy ustida talashib yurishadi. Mana o'sha ruboiy:

Qaro yer qa'ridan to avji zuhal,  
Koinot sirlarin barin qildim hal,  
Ko'p mushkul tugunni yechdim, angladim,  
Yechilmay qolgani - birgina ajal!...

Bu ruboiy janrining eng mumtoz, eng nodir namunasidir albatta. Shoislom Shomuhamedov bu ruboiyni a'lo darajada tarjima qilibdi. Biroq bu bebaho purma'no ruboiy kimning qalamiga mansub? Shoislom Shomuhamedov bu ruboiyni Xayyom qalamiga mansub deb tarjima qilgan. Ammo Ibn Sino hayotini sinchiklab tekshirgan, shu mavzuda tarixiy roman yozgan V. Smirnova-Rakitina Ibn Sinoning barcha ruboiylarini, jumladan bu ruboiyni ham o'z asari tarkibiga singdirib yuborgan. Adibaning ushbu romanini o'zbek tiliga tarjima qilib turgan paytimda (mening iltimosim bilan) Erkin Vohidov shu ruboiylarni ruschadan o'zbekchaga tarjima qilib bergan edi. Mana shulardan namunalar:

Jahonda qolmadi men bilmagan fan,  
Na mushkul bo'lsa yechdim, donish ilan,  
Va lekin bu o'lim otlik tugunni,  
Yecholmasdan o'tar bo'ldim jahondan.  
Mening kufrim ayblarga dilimdan o'zga sulton yo'q,  
Bu olamda mening pokiza imonimdek imon yo'q.  
Musulmonlikda men ahli zamon ichra edim tanho,  
Agar kofir esam men ham, bu dunyoda musulmon yo'q.

Rostini aytsam, men o'zim ham ellik yildan beri bu ruboiyni Ibn Sinoning asari deb yuraman va bu e'tiqoddan qaytishim ham amri mahol. Zero ruboiyning ruhi, unga singdirilgan teran fikr va nadomat ohangi uni falakiyot, tabiiyot va tabobatdan mo'jizalar ko'rsatgan ulug' allomaning asari ekanini ravshan ko'rsatib turibdi.  
Biz bir ishora bilan Pahlavon kitobi tarkibidagi shubhali ruboiylarni chiqarib tashladik, biroq hamma ham bu tazkiralarga bizdek ehtirom bilan qaramaydi chog'i. Bo'lmasa 5 asrdan buyon hamma tazkiralarda Pahlavon Mahmudga nisbat berib kelingan "Qanzul haqoyiq"ni 1967 yilda Eronda Mahmud Shabustariyga nisbat berib nashr qilishni nima deb tushunish kerak? Nahotki, eronlik Said Muhammad Ali Sofir bu mashhur tazkiralardan bexabar bo'lsa?  
Balki tazkirachilar xato qilgandir?

T. Jalolov, Toshkent - 1975 yil